

XITOYNING AFG‘ONISTONDAGI XAVFSIZLIK MANFAATLARI: SHINJON OMILI VA TRANSMILLIY TAHDIDLAR

Otamurodov Mamurjon

Toshkent kimyo texnologiya instituti tayanch doktoranti

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada muallif Xitoy Xalq Respublikasining Afg‘onistondagi xavfsizlik manfaatlari Shinjon omili va transmilliy tahdidlar kontekstida tahlil qilgan. Tadqiqotda Afg‘onistonning Xitoy xavfsizlik strategiyasidagi o‘rni, ETIM/TIP kabi ekstremistik guruhlar faoliyati, Tolibon hokimiyatining xavfsizlik majburiyatlari, ISKP, Al-Qoida, TTP kabi transmilliy terroristik tarmoqlarning mintaqaviy barqarorlikka ta’siri ilmiy jihatdan yoritiladi. Maqolada Xitoyning Afg‘onistonga nisbatan siyosati ehtiyotkor pragmatizm, chegaraviy xavfsizlik, terrorizmga qarshi kurash va geoiqtisodiy manfaatlar uyg‘unligi asosida shakllanayotgani asoslab beriladi. Shuningdek, Shinjon-Uyg‘ur avtonom rayoni barqarorligi Xitoyning afg‘on yo‘nalishidagi asosiy xavfsizlik determinantlaridan biri sifatida ko‘rib chiqiladi. Maqolada tarixiy-tahliliy, qiyosiy, kontent-tahlil, diskursiv tahlil va tizimli yondashuv metodlaridan foydalanilgan. Maqola natijalari Xitoyning Afg‘onistondagi manfaatlari ichki xavfsizlik, mintaqaviy barqarorlik, transport-kommunikatsiya loyihalari va “Bir makon, bir yo‘l” tashabbusi xavfsizligi bilan uzviy bog‘liq ekanini ko‘rsatadi. Ushbu maqola Xitoy-Afg‘oniston munosabatlarini Markaziy Osiyo xavfsizlik muhiti bilan bog‘liq holda o‘rganish zarurligini asoslangan.

Kalit so‘zlar: Xitoy, Afg‘oniston, Shinjon, xavfsizlik manfaatlari, ETIM, TIP, Tolibon, transmilliy tahdidlar, terrorizm, ekstremizm, ISKP, Al-Qoida, Markaziy Osiyo, geosiyosat, “Bir makon, bir yo‘l”.

ИНТЕРЕСЫ БЕЗОПАСНОСТИ КИТАЯ В АФГАНИСТАНЕ: СИНЬЦЗЯНСКИЙ ФАКТОР И ТРАНСНАЦИОНАЛЬНЫЕ УГРОЗЫ

Otamurodov Mamurjon

Докторант Ташкентского химико-технологического института

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются интересы безопасности Китайской Народной Республики в Афганистане в контексте синьцзянского фактора и транснациональных угроз. В исследовании рассматриваются место

Афганистана в стратегии безопасности Китая, деятельность таких экстремистских группировок, как ЕТИМ/ТИР, обязательства властей Талибана в сфере обеспечения безопасности, а также влияние транснациональных террористических сетей, таких как ISKP, «Аль-Каида» и ТТР, на региональную стабильность. В статье обосновывается, что политика Китая в отношении Афганистана формируется на основе сочетания осторожного прагматизма, обеспечения пограничной безопасности, противодействия терроризму и геоэкономических интересов. Кроме того, стабильность Синьцзян-Уйгурского автономного района рассматривается как один из ключевых факторов безопасности, определяющих афганское направление внешней политики Китая. В исследовании использованы историко-аналитический, сравнительный методы, контент-анализ, дискурсивный анализ и системный подход. Результаты статьи показывают, что интересы Китая в Афганистане тесно связаны с внутренней безопасностью, региональной стабильностью, транспортно-коммуникационными проектами и обеспечением безопасности инициативы «Один пояс, один путь». В статье обосновывается необходимость изучения китайско-афганских отношений во взаимосвязи с безопасностной средой Центральной Азии.

Ключевые слова: *Китай, Афганистан, Синьцзян, интересы безопасности, ЕТИМ, ТИР, Талибан, транснациональные угрозы, терроризм, экстремизм, ISKP, «Аль-Каида», Центральная Азия, геополитика, инициатива «Один пояс, один путь».*

KIRISH

Afg‘oniston XXR tashqi siyosati va xavfsizlik strategiyasida geografik jihatdan kichik, ammo strategik ahamiyati yuqori yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Mamlakatning Xitoy bilan bevosita chegaradoshligi, Markaziy va Janubiy Osiyo o‘rtasidagi geosiyosiy tutashuv nuqtasida joylashgani, shuningdek, Afg‘oniston hududida uzoq yillar davomida shakllangan transmilliy ekstremistik tarmoqlar Pekinning mintaqaviy xavfsizlik qarashlarida ushbu hududning ahamiyatini oshiradi. Ayniqsa, 2021-yilda AQSh va NATO kuchlarining Afg‘onistondan chiqib ketishi hamda “Tolibon”ning hokimiyatga qaytishi Xitoy uchun yangi xavfsizlik muhitini yuzaga keltirdi. SIPRI tahliliga ko‘ra, “Xitoyning Afg‘onistondagi faolligi ehtiyotkor, pragmatik va xavfsizlik xavotirlari bilan cheklangan yondashuvga asoslanmoqda; Pekin Afg‘onistonda bevosita harbiy-siyosiy mas‘uliyatni o‘z zimmasiga olishdan

ko'ra, mintaqaviy mexanizmlar, diplomatik aloqalar va iqtisodiy rag'batlar orqali tahdidlarni boshqarishga intilmoqda"¹.

Xitoyning Afg'onistondagi xavfsizlik manfaatlarini anglashda Shinjon omili markaziy o'rin tutadi. Shinjon-Uyg'ur avtonom hududi XXR uchun ichki barqarorlik, chegaraviy xavfsizlik, "Bir makon, bir yo'l" tashabbusining g'arbiy yo'nalishi hamda Markaziy Osiyo bilan bog'lovchi strategik hudud sifatida baholanadi. Zhao Huasheng ning tadqiqotida Xitoy Afg'onistonga nisbatan avvalo Shinjondagi beqarorlikning oldini olish nuqtayi nazaridan qarashi qayd etiladi². Michael E. Clarke esa Shinjondagi ichki xavfsizlik muammolari Xitoyning Markaziy Osiyo, Afg'oniston va kengroq Yevrosiyo siyosati bilan bevosita bog'langanini ko'rsatadi³. Shu bois Afg'oniston Xitoy uchun oddiy qo'shni davlat emas, balki ichki xavfsizlik va tashqi geosiyosiy strategiya tutashadigan hudud sifatida namoyon bo'ladi.

Mazkur mavzuda "Sharqiy Turkiston Islomiy Harakati" yoki "Turkiston Islomiy Partiyasi" masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Xitoy Tashqi ishlar vazirligi ETIM⁴ kuchlarining Afg'onistondagi mavjudligini Xitoy, Afg'oniston va butun mintaqa xavfsizligiga jiddiy tahdid sifatida talqin qiladi⁵. BMT Xavfsizlik Kengashi sanksiyalar ro'yxatidagi tahliliy ma'lumotlarda Sharqiy turkiston islom harakati Tolibon, Al-Qoida va O'zbekiston Islomiy Harakati bilan aloqalarga ega bo'lgan tashkilot sifatida tavsiflanadi⁶. Demak, Xitoyning Afg'onistondagi xavfsizlik manfaatlari faqat ikki tomonlama chegara xavfsizligi bilan cheklanmaydi; u transmilliy jihodiy tarmoqlar, xorijiy jangarilar, radikallashuv, noqonuniy moliyaviy oqimlar va mintaqaviy beqarorlik xavflarini ham qamrab oladi.

2021-yildan keyingi sharoitda Afg'onistonda xavfsizlik vaziyatining murakkabligi Xitoy uchun ikki yoqlama muammo yaratdi. Bir tomondan, G'arb harbiy kuchlarining chiqib ketishi Pekin uchun Afg'onistonda diplomatik va iqtisodiy ishtirokni kuchaytirish imkoniyatini ochdi. Ikkinchi tomondan, Tolibon hukumatining terroristik guruhlarni to'liq nazorat qilish salohiyati bo'yicha shubhalar saqlanib qolmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Jinoyatchilik va Odil sudlov bo'yicha

¹ Jiayi Zhou, Fei Su and Jingdong Yuan. Treading Lightly: China's Footprint in a Taliban-led Afghanistan. // Insights on Peace and Security. 2022. –P.4. Electron resosource: https://www.sipri.org/sites/default/files/2022-11/sipriinsights_2208_china_and_afghanistan_2.pdf

² Zhao Huasheng. China and Afganistan. China'sinterests, stances and perpertives. 2022.–P.89. Electron resource: https://www.sipri.org/sites/default/files/2022-11/sipriinsights_2208_china_and_afghanistan_2.pdf

³ Michael E. Clarke. Xinjiang and China's Rise in Central Asia - A History. <https://www.routledge.com/Xinjiang-and-Chinas-Rise-in-Central-Asia---A-History/Clarke/p/book/9780415728386>

⁴ Eastern Turkistan Islamic Movement – Sharqiy Turkiston Islomiy Harakati

⁵ China's Position on the Afghan Issue. // Ministry of Foreign Affairs People's Republic of China.// Electron resource: https://www.fmprc.gov.cn/eng/gjhdq_665435/2675_665437/2676_663356/2677_663358/202304/t20230412_11057785.html

⁶ Eastern Turkistan islamic movement. // Electron resource: https://main.un.org/securitycouncil/en/sanctions/1267/aq_sanctions_list/summaries/entity/eastern-turkistan-islamic-movement

mintaqalararo tadqiqot instituti hisobotlarida Afg‘onistonda Tolibon ichidagi bo‘linishlar, mintaqaviy va global terrorchi guruhlarining mavjudligi hamda transmilliy uyushgan jinoyatchilik xavflari asosiy xavfsizlik tendensiyalari sifatida ko‘rsatiladi⁷. EPRS tahliliga ko‘ra, zo‘ravonlik darajasi ayrim jihatdan pasaygan bo‘lsa-da, Tolibon Afg‘oniston iqtisodiyotini barqaror yuritish va hududdagi terrorchi guruhlariga qarshi samarali kurashish masalasida jiddiy cheklovlarga duch kelmoqda⁸.

Xitoyning Afg‘onistondagi siyosati xavfsizlik va iqtisodiy manfaatlarining o‘zaro bog‘liqligi asosida shakllanmoqda. Pekin uchun Afg‘onistonning barqarorlashuvi Shinjon xavfsizligi, Xitoy-Pokiston iqtisodiy yo‘lagi, Markaziy Osiyo bilan transport-kommunikatsiya aloqalari va “Bir makon, bir yo‘l” tashabbusining xavfsizligi bilan bog‘liq. ORFning 2025-yilgi tahlilida Xitoyning Tolibon bilan muloqoti va iqtisodiy faolligi ETIMning Afg‘onistonda xavfsiz boshpana topishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadi bilan izohlanadi⁹. Shu bilan bir qatorda, Xitoyning “rivojlanish orqali barqarorlik” yondashuvi Afg‘oniston va Pokiston sharoitida sinovdan o‘tayotgani, biroq bu model Shinjondagi murakkab ijtimoiy-siyosiy tajriba sababli bahsli ekani ta’kidlanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Xitoyning Afg‘onistondagi xavfsizlik manfaatlarini masalasi so‘nggi yillarda xalqaro munosabatlar, xavfsizlikshunoslik, mintaqaviy geosiyosat va terrorizmga qarshi kurash tadqiqotlarida alohida ilmiy yo‘nalish sifatida shakllanmoqda. Mavjud adabiyotlarda Xitoyning Afg‘onistonga nisbatan siyosati odatda uch asosiy omil orqali izohlanadi: birinchidan, Shinjon-Uyg‘ur avtonom rayonida barqarorlikni ta’minlash; ikkinchidan, Afg‘oniston hududining transmilliy ekstremistik guruhlar uchun xavfsiz boshpana bo‘lib qolishining oldini olish; uchinchidan, Markaziy va Janubiy Osiyo o‘rtasidagi geoiqtisodiy bog‘liqlik, xususan “Bir makon, bir yo‘l” tashabbusi hamda Xitoy-Pokiston iqtisodiy yo‘lagi xavfsizligini ta’minlash. Feng Zhang Xitoy-Afg‘oniston munosabatlari tarixini uch bosqichda talqin qiladi: sovuq urush davridagi nisbiy uzoqlashuv, 1990-yillarda Afg‘onistondan kelib chiqishi mumkin bo‘lgan uyg‘ur jangariligi xavotiri, 2001-yildan keyin esa Pekinning afg‘on masalasida bosqichma-bosqich faollashuvi kabilarni o‘z ichiga oladi¹⁰. Feng Zhang o‘z tadqiqotlari doirasida, 2021-yildan keyingi Xitoy siyosatida Tolibon bilan

⁷ United Nations Interregional Crime and Justice Research Institute. Afghanistan’s Security Landscape under the Taliban and its Effects on Regional and International Stability. 2023. –P.59. // Electron resource: <https://unicri.org/sites/default/files/2025-04/Afghanistan-Security-Landscape.pdf>

⁸ Future of Sino-Afghan relations. Impacts on EU interests and strategic autonomy.// Electron resource: https://www.europarl.europa.eu/RegData/etudes/BRIE/2023/747434/EPRS_BRI%282023%29747434_EN.pdf

⁹ Shivam Shekhawat. Understanding China’s Engagement with Afghanistan Under Taliban 2.0. // Electron resource: <https://www.orfonline.org/research/understanding-china-s-engagement-with-afghanistan-under-taliban-2-0>

¹⁰ L. Andersen, Y. Jiang. China’s engagement in Pakistan, Afghanistan and Xinjiang: Will China’s root cause model provide regional stability and security? Danish Institute for International Studies. 2018. –P.45.

ehtiyotkor pragmatik muloqot, Afg'onistonning terrorchilar uchun boshpana bo'lib qolishiga yo'l qo'ymaslik va Shinjon xavfsizligi markaziy omillar sifatida namoyon bo'ladi.

Mazkur mavzuga doir tadqiqotlarda Shinjon omili Xitoyning Afg'oniston siyosatini tushuntiruvchi eng muhim ichki xavfsizlik omili sifatida baholanadi. Maykl E. Klarke o'z tadqiqotlarida Shinjon masalasini Xitoyning Markaziy Osiyo va kengroq Yevrosiyo siyosati bilan bog'liq holda tahlil qiladi. Uning fikricha, Pekinning Shinjondagi integratsion siyosati faqat ichki boshqaruv masalasi emas, balki Xitoyning g'arbiy chegaralari, Markaziy Osiyo bilan aloqalari va mintaqaviy xavfsizlik strategiyasiga bevosita ta'sir qiluvchi omildir¹¹. Klarke'ning "Xitoyning Shinjondagi "Terrorga qarshi urushi" maqolasida uyg'ur separatizmi va radikallashuvining ayrim ko'rinishlari Shinjondagi ichki siyosiy jarayonlar hamda Markaziy va Janubiy Osiyodagi islomiy radikal tarmoqlar bilan o'zaro bog'langan holda izohlanadi.

Nadine Godehardtning Xitoy va Markaziy Osiyo haqidagi monografiyasi ham ushbu mavzu uchun nazariy jihatdan muhimdir. Muallif Xitoy ekspert diskursida Markaziy Osiyo qanday tasavvur qilinishi, Pekinning g'arbiy qo'shnichilik makonini qanday siyosiy-hududiy kategoriya sifatida ko'rishi va bu jarayonda xavfsizlik, iqtisodiy rivojlanish hamda mintaqaviy ta'sir omillari qanday uyg'unlashishini ko'rsatadi¹². Mazkur yondashuv Afg'onistonni ham Xitoyning kengroq "g'arbiy qo'shnichilik" strategiyasi doirasida o'rganish zarurligini asoslaydi. Chunki Afg'oniston bevosita Markaziy Osiyo davlatlari, Pokiston va Shinjon bilan tutashgan xavfsizlik makonida joylashgan.

Shuningdek, Barnett R. Rubinning "Xitoyning Afg'onistondagi tinchlik o'rnatish sa'y-harakatlari" maqolasida ta'kidlashicha, Xitoyning afg'on mojarolarida vositachilik qilish borasidagi sa'y-harakatlari davlat ichidagi yoki davlatlararo vositachilikning odatiy toifalariga osonlikcha mos kelmaydi. Ushbu maqolalarda muhokama qilingan Xitoyning mojarolarni boshqarish, tinchlik o'rnatish yoki vositachilik borasidagi sa'y-harakatlarining aksariyati davlatlar va nodavlat subyektlar, jumladan Efiopiya, Janubiy Sudan, Yaman, Mali/Sahel va Afrikadagi terrorizm o'rtasidagi mojarolarni o'z ichiga olgan¹³.

Mahalliy ilmiy adabiyotlarda Afg'oniston va Xitoy o'rtasidagi munosabatlarning siyosiy, xavfsizlik, geoiqtisodiy hamda mintaqaviy omillari qator tadqiqotchilar tomonidan izchil o'rganilgan. Xususan, Abdusamad Haydarov,

¹¹ M. E. Clarke. Xinjiang and China's rise in Central Asia: A history. Routledge. 2011. –P.83.

¹² European Parliamentary Research Service. Future of Sino-Afghan relations: Impacts on EU interests and strategic autonomy. European Parliament. 2023. –P.12.

¹³ Barnett R. Rubin. Chinese Peacemaking Efforts in Afghanistan. 2024. // Electron resource: <https://www.stimson.org/2024/chinese-peacemaking-efforts-in-afghanistan>

Shoislom Akmalov, Suhrob Bo‘ronov, Obidjon Abdurahmonov va Sardor Rahimov kabi olimlarning tadqiqotlarida Afg‘onistonning mintaqaviy xavfsizlik tizimidagi o‘rni, Xitoyning afg‘on yo‘nalishidagi strategik manfaatlari, “Bir makon, bir yo‘l” tashabbusi doirasidagi geoiqtisodiy yondashuvlar, shuningdek, terrorizm, ekstremizm, transchegaraviy tahdidlar va Markaziy Osiyo xavfsizligiga ta‘sir etuvchi omillar ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Ushbu tadqiqotlar Xitoy-Afg‘oniston munosabatlarini faqat ikki tomonlama diplomatik aloqalar doirasida emas, balki kengroq mintaqaviy xavfsizlik, transport-kommunikatsiya, geosiyosiy raqobat va transmilliy tahdidlar kontekstida o‘rganish zarurligini asoslashga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, Observer Research Foundation tahlilida Xitoyning Tolibon bilan aloqalari asosan xavfsizlik maqsadlariga xizmat qilishi ta‘kidlanadi. 2025-yilgi ORF tahliliga ko‘ra, Xitoy Afg‘oniston bilan siyosiy va iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish orqali ETIMning Afg‘onistonda xavfsiz boshpana topishiga yo‘l qo‘ymaslikka, shuningdek, Afg‘onistondagi turli terrorchi guruhlar Xitoyning g‘arbiy chegaralariga beqarorlik olib kirishining oldini olishga intilmoqda. Bu yondashuv Pekinning iqtisodiy diplomatiyasi ham xavfsizlik maqsadlariga bo‘ysundirilganini ko‘rsatadi.

TADQIQOT METODLARI

Mazkur maqolada Xitoyning Afg‘onistondagi xavfsizlik manfaatlari, Shinjon omili hamda transmilliy tahdidlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ochib berish uchun sifatga asoslangan kompleks tadqiqot yondashuvidan foydalanildi. Shu o‘rinda birinchi navbatda tarixiy-tahliliy metoddan foydalanildi. Ushbu metod orqali Xitoy-Afg‘oniston munosabatlarining shakllanish bosqichlari, sovuq urushdan keyingi davrda Afg‘onistonning Xitoy xavfsizlik strategiyasidagi o‘rni, 2001-yildan keyingi xalqaro harbiy ishtirok sharoitida Pekinning ehtiyotkor siyosati hamda 2021-yilda Tolibonning hokimiyatga qaytishidan keyingi yangi geosiyosiy vaziyat izchil o‘rganildi. Bu metod Xitoyning Afg‘onistondagi xavfsizlik manfaatlari vaqt o‘tishi bilan qanday transformatsiyalanganini aniqlash imkonini berdi.

Maqolada qiyosiy tahlil metod yordamida Xitoyning Afg‘onistonga nisbatan yondashuvi Markaziy Osiyo, Pokiston va Shinjon bilan bog‘liq xavfsizlik siyosati kontekstida solishtirib tahlil qilindi. Qiyosiy yondashuv Xitoyning Afg‘onistondagi siyosati alohida tashqi siyosiy yo‘nalish emas, balki Pekinning g‘arbiy chegaralar xavfsizligini ta‘minlashga qaratilgan kengroq strategiyasining tarkibiy qismi ekanini ko‘rsatishga xizmat qildi. Shu orqali Shinjon omili, Xitoy-Pokiston iqtisodiy yo‘lagi, “Bir makon, bir yo‘l” tashabbusi va Markaziy Osiyo xavfsizlik muhiti o‘rtasidagi bog‘liqliklar aniqlashtirildi.

Shuningdek, kontent-tahlil metodi asosida Xitoy Tashqi ishlar vazirligi bayonotlari, BMT Xavfsizlik Kengashi ma'lumotlari, xalqaro tashkilotlar hisobotlari, tahlil markazlari materiallari hamda ilmiy maqolalarda ilgari surilgan asosiy g'oyalar tadqiq qilingan. Mazkur metod Xitoyning Afg'onistonga oid rasmiy diskursida "xavfsizlik", "terrorizm", "ekstremizm", "ETIM/TIP", "mintaqaviy barqarorlik", "Shinjon xavfsizligi" va "rivojlanish orqali xavfsizlik" kabi tushunchalar qanday talqin qilinishini aniqlash imkonini beradi.

MUHOKAMA VA NATIJALARI

Xitoyning Afg'onistondagi xavfsizlik manfaatlari, avvalo, Shinjon-Uyg'ur avtonom rayoni barqarorligi bilan uzviy bog'liq ekanini ko'rsatadi. Zhao Huasheng Xitoyning Afg'onistonga nisbatan manfaatlari AQSh yoki boshqa yirik kuchlarniki kabi keng harbiy-siyosiy ekspansiyaga emas, balki Shinjonga beqarorlik kirib kelishining oldini olishga qaratilganini ta'kidlaydi. Ushbu yondashuv Xitoyning Afg'oniston siyosatini "cheklangan manfaatlar, ehtiyotkor ishtirok va xavfsizlikka yo'naltirilgan pragmatizm" sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Xitoyning rasmiy pozitsiyasida ham Afg'oniston masalasi bevosita xavfsizlik diskursi orqali izohlanadi. XXR Tashqi ishlar vazirligining "Afg'oniston masalasida Xitoyning pozitsiyasi" hujjatida xavfsizlik taraqqiyotning asosi va zaruriy sharti sifatida ko'rsatiladi hamda ETIM kuchlarining Afg'onistondagi mavjudligi Xitoy, Afg'oniston va butun mintaqa xavfsizligiga jiddiy tahdid sifatida baholanadi¹⁴. BMT Xavfsizlik Kengashi sanksiyalar ro'yxatida esa ETIM Tolibon, Al-Qoida va O'zbekiston Islomiy Harakati bilan aloqalarga ega bo'lgan tashkilot sifatida tavsiflangan. Bu holat Pekinning xavotirlari faqat ichki separatizm masalasi bilan cheklanmasdan, transmilliy jihodiy tarmoqlar va mintaqaviy ekstremistik infratuzilmalar bilan ham bog'liq ekanini ko'rsatadi.

Stefanie Kamning "Urushdan keyingi Afg'onistonda Xitoy va rivojlanayotgan harbiy tahdid" maqolasida AQSh qo'shinlari chiqib ketganidan keyingi davrda Pekinning asosiy xavfsizlik maqsadi TIPning transchegaraviy infiltratsiyasi orqali Shinjon beqarorlashuvining oldini olish ekani qayd etiladi¹⁵. Muallif ISKP, Al-Qoida va TIP kabi guruhlarining Afg'onistondagi faoliyati Xitoy uchun xavfsizlik tahdidlarining ko'p qatlamli tus olganini ko'rsatishini ta'kidlaydi. Shu jihatdan Xitoyning Afg'onistondagi strategiyasi "bitta guruhga qarshi kurash" emas, balki terrorizm, ekstremizm, xorijiy jangarilar, chegara xavfsizligi va mintaqaviy

¹⁴ Ministry of Foreign Affairs of the People's Republic of China. China's position on the Afghan issue. 2023. // Electron resource: https://www.fmprc.gov.cn/eng/gjhdq_665435/2675_665437/2676_663356/2677_663358/202304/t20230412_11057785.html

¹⁵ S. Kam. China and the evolving militant threat in post-war Afghanistan. *Counter Terrorist Trends and Analyses*, 14(2), 2023. –P. 16–23.

beqarorlikni birgalikda jilovlashga qaratilgan kompleks xavfsizlik siyosati sifatida namoyon bo'ladi.

Raffaello Pantucci va Edward Schwarckning uyg'ur ekstremizmi bo'yicha tadqiqotlari ham Xitoy xavfsizlik siyosatining Afg'oniston-Pokiston mintaqasi bilan uzviy aloqadorligini ko'rsatadi. Ularning fikricha, Afg'oniston va Pokiston hududidagi xavfsizlik bo'shliqlari uyg'ur jangari guruhlarining transmilliy tarmoqlar bilan bog'lanishiga sharoit yaratishi mumkin¹⁶. Bu yondashuv Afg'onistonni Xitoy uchun faqat diplomatik qo'shni davlat emas, balki Shinjon xavfsizligiga ta'sir etuvchi tashqi xavfsizlik makoni sifatida baholash zarurligini asoslaydi.

Jiayi Zhou, Fei Su va Jingdong Yuan Xitoyning Tolibon boshqaruvidagi Afg'onistondagi siyosatini "yengil qadam tashlash", ya'ni ehtiyotkor qadam tashlash strategiyasi sifatida baholaydi¹⁷. Ularning tahliliga ko'ra, Xitoy Afg'oniston xavfsizligi va taraqqiyotida muhim o'yinchi bo'lish salohiyatiga ega, biroq Pekin Afg'oniston muammosida yakka tartibda mas'uliyat olishdan qochadi va ko'proq mintaqaviy mexanizmlar, diplomatik kanallar hamda iqtisodiy rag'batlar orqali ta'sir o'tkazishni afzal ko'radi. Bu Xitoyning Tolibon bilan munosabatlarida ideologik yaqinlik emas, balki xavfsizlik kafolatlari va strategik ehtiyotkorlik asosiy mezon ekanini ko'rsatadi.

International Crisis Group tahliliga ko'ra, Tolibon qo'shni davlatlarning xavfsizlik xavotirlariga javoban ko'plab jangari guruhlar masalasida ularni to'liq yo'q qilishdan ko'ra, ularni nazorat ostida ushlab turish yoki faoliyatini inkor etish taktikasidan foydalanadi¹⁸. Bu holat Xitoy uchun muhim muammo tug'diradi: Pekin Tolibondan ETIM/TIPga qarshi qat'iy choralar kutadi, biroq Tolibonning ichki siyosiy muvozanati, turli fraksiyalar bilan aloqalari va jangari guruhlariga nisbatan selektiv yondashuvi bu kafolatlarning amaliy qiymatini cheklaydi. Shu sababli Xitoy-Tolibon munosabatlarini strategik ittifoq sifatida emas, balki "shartli pragmatizm" va "taktik muvofiqlashuv" sifatida baholash maqsadga muvofiqdir.

Xitoyning Afg'onistondagi iqtisodiy faolligi ham xavfsizlik manfaatlaridan ajralgan holda shakllanmaydi. Afg'oniston Xitoy uchun mineral resurslar, transport yo'laklari, Markaziy va Janubiy Osiyo bog'liqligi hamda "Bir makon, bir yo'l" tashabbusi nuqtayi nazaridan muhim bo'lishi mumkin. Biroq EPRS tahliliga ko'ra, 2021-yil 15-avgustda Tolibonning Kobulni egallashi va G'arb kuchlarining chiqib

¹⁶ R. Pantucci, E. Schwarck, Transition in Afghanistan: Filling the security vacuum – The expansion of Uighur extremism? CIDOB. <https://www.files.ethz.ch/isn/181512/Uighurs%20paper%20May%202014.pdf>

¹⁷ J.Zhou, F. Su, J. Yuan. Treading lightly: China's footprint in a Taliban-led Afghanistan. SIPRI Insights on Peace and Security No. 2022/08. Stockholm International Peace Research Institute.

¹⁸ International Crisis Group. *The Taliban's neighbourhood: Regional diplomacy with Afghanistan*. Asia Report No. 337.2024. // Electron resource: <https://www.crisisgroup.org/rpt/asia/south-asia/afghanistan/337-talibans-neighbourhood-regional-diplomacy-afghanistan>

ketishi Afg'onistonga avtomatik tinchlik va barqarorlik olib kelmadi¹⁹. Shu bois Xitoyning iqtisodiy loyihalari xavfsizlik kafolatlari, xalqaro tan olinmaganlik, terroristik guruhlar mavjudligi va davlat institutlarining zaifligi bilan cheklanmoqda.

ORFning 2025-yilgi tahlilida Xitoyning Tolibon bilan muloqoti faqat iqtisodiy manfaatlar bilan emas, balki Shinjon xavfsizligi va ETIM/TIP tahdidining Afg'oniston hududidan qayta faollashishiga yo'l qo'ymaslik maqsadi bilan izohlanadi²⁰. Demak, Pekinning Afg'onistondagi iqtisodiy diplomatiyasi xavfsizlikka xizmat qiluvchi vosita sifatida namoyon bo'ladi. Boshqacha aytganda, Xitoy Afg'onistonda "rivojlanish orqali barqarorlik" formulasini ilgari suradi, biroq bu model Tolibonning amaliy nazorat salohiyati, xalqaro sanksiyalar, terrorchi guruhlar faoliyati va mahalliy ijtimoiy-iqtisodiy inqiroz sababli murakkab cheklovlarga duch keladi.

UNICRI hisobotida Afg'onistondagi xavfsizlik muhiti ekstremizm, terrorizm va transmilliy uyushgan jinoyatchilik o'rtasidagi murakkab bog'liqlik orqali izohlanadi. Bu Xitoy uchun Afg'oniston xavfsizlik muammosini ETIM/TIP bilan cheklab bo'lmasligini ko'rsatadi²¹. ISKP, Al-Qoida, TTP, narkotrafik, noqonuniy qurol aylanishi, jangarilar migratsiyasi va moliyaviy oqimlar Afg'onistonni kengroq transmilliy tahdidlar makoniga aylantiradi. Shu nuqtayi nazardan, Xitoyning Afg'oniston siyosati ichki xavfsizlik, chegaraviy nazorat va mintaqaviy xavfsizlik institutlari bilan chambarchas bog'langan.

Narkotrafik masalasi ham Afg'onistondan kelib chiqadigan transmilliy tahdidlarning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. UNODCning 2025-yilgi ma'lumotlariga ko'ra, Afg'onistonda opium yetishtirish 2024-yilga nisbatan 20 foizga kamaygan, biroq bu jarayon mintaqaviy narkotik ishlab chiqarish va tashish yo'nalishlarida yangi o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda²². Bu Xitoy uchun shuni anglatadiki, Afg'onistondagi xavfsizlik tahdidlari faqat terrorizm shaklida emas, balki uyushgan jinoyatchilik, noqonuniy iqtisodiy tarmoqlar va chegaraviy beqarorlik orqali ham namoyon bo'ladi.

Mavzuni xavfsizlik nuqati nazar, Xitoy Afg'oniston muammosini Shinjon xavfsizligi, hududiy yaxlitlik va mintaqaviy barqarorlik bilan bog'lab, uni yuqori darajadagi xavfsizlik masalasiga aylantiradi. Bunday yondashuv Pekingga Tolibon bilan muloqotni davom ettirish, BMT va mintaqaviy platformalarda terrorizmga

¹⁹ Jiayi Zhou, Fei Su And Jingdong Yuan. Treading Lightly: China's Footprint In A Talibanled Afghanistan. // Electron resource: https://www.sipri.org/sites/default/files/2022-11/sipriinsights_2208_china_and_afghanistan_2.pdf

²⁰ Observer Research Foundation. Understanding China's engagement with Afghanistan under Taliban 2.0. // Electron resource : <https://www.orfonline.org/research/understanding-china-s-engagement-with-afghanistan-under-taliban-2-0>

²¹ Stephen Westcott. The Pragmatic Neighbour China's Afghanistan Policy 2001-2021. Journal of Asian Security and International Affairs Online. First 2022 SAGE Publications.

²² United Nations Office on Drugs and Crime. Afghanistan opium survey 2025. Electron resource : https://www.unodc.org/documents/crop-monitoring/Afghanistan/Afghanistan_Opium_Survey_2025.pdf

qarshi hamkorlikni ilgari surish, shuningdek, Afg'oniston bo'yicha iqtisodiy tashabbuslarni xavfsizlik kafolatlari bilan shartlash imkonini beradi. Shu bilan birga, ayrim g'arb tadqiqotchilari Xitoyning "terrorizmga qarshi kurash" diskursi Shinjon ichki siyosatini legitimlashtirish vositasi sifatida ham ishlatilishini ta'kidlaydi. Shuning uchun ilmiy tahlilda Xitoy rasmiy pozitsiyasi, BMT hujjatlari, mustaqil tahlil markazlari va tanqidiy akademik adabiyotlar o'rtasida muvozanat saqlanishi zarur.

Xitoyning Afg'onistondagi xavfsizlik manfaatlari to'rt asosiy qatlamdan iborat ekanini ko'rsatadi. Birinchi qatlam Shinjon barqarorligi va ETIM/TIP tahdidining oldini olish bilan bog'liq. Ikkinchi qatlam Tolibon bilan pragmatik muloqot orqali Afg'oniston hududidan Xitoyga qarshi guruhlarining foydalanishiga yo'l qo'ymaslikka qaratilgan. Uchinchi qatlam ISKP, Al-Qoida, TTP, narkotrafik va transmilliy uyushgan jinoyatchilik kabi kengroq xavfsizlik tahdidlarini qamrab oladi. To'rtinchi qatlam esa "Bir makon, bir yo'l" tashabbusi, Xitoy-Pokiston iqtisodiy yo'lagi va Markaziy Osiyo orqali shakllanayotgan transport-kommunikatsiya loyihalarining xavfsizligi bilan bog'liq. Shu bois Xitoyning Afg'oniston siyosatini faqat iqtisodiy ekspansiya yoki geosiyosiy ta'sir nuqtayi nazaridan emas, balki ichki xavfsizlik va tashqi xavfsizlikning o'zaro bog'liqligi asosida tahlil qilish ilmiy jihatdan asosli hisoblanadi.

TAKLIFLAR

Xitoyning Afg'onistondagi xavfsizlik manfaatlari, Shinjon omili va transmilliy tahdidlar bilan bog'liq masalalar keng mintaqaviy xavfsizlik tizimi, Markaziy Osiyo barqarorligi, terrorizmga qarshi kurash, transport-kommunikatsiya loyihalari hamda geoiqtisodiy manfaatlar bilan uzviy bog'liqdir. Shu bois mazkur yo'nalishda quyidagi ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalarni ilgari surish mumkin.

Birinchi, Afg'oniston hududidan kelib chiqadigan transmilliy tahdidlarni jilovlashda Xitoyning Tolibon bilan ikki tomonlama muloqotga tayanishi yetarli natija bermasligi mumkin. Xitoy, Markaziy Osiyo davlatlari, Pokiston, Eron va Rossiya ishtirokida ko'p tomonlama xavfsizlik muloqotlarini kuchaytirish maqsadga muvofiqdir. Afg'onistondagi terroristik guruhlar, narkotrafik, noqonuniy qurol savdosi, radikallashuv va jangarilar harakati bir davlat chegarasi doirasida cheklanmaydigan transmilliy xususiyatga ega. Shu sababli mintaqaviy xavfsizlik mexanizmlarida axborot almashinuvi, chegara nazorati, terrorizmga qarshi qo'shma monitoring va tahdidlarni erta aniqlash tizimlarini rivojlantirish zarur.

Ikkinchi, Xitoyning Afg'oniston bo'yicha siyosatida Shinjon omili muhim o'rin tutayotganini inobatga olib, ETIM/TIP kabi guruhlariga qarshi kurash harbiy-xavfsizlik choralarigagina bog'lab qo'yilmasligi lozim. Transmilliy ekstremizmga

qarshi kurashda ideologik profilaktika, radikallashuvning oldini olish, ijtimoiy-iqtisodiy muhitni barqarorlashtirish va mahalliy aholining tinch rivojlanish manfaatlarini qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyatga ega. Afg'onistonda uzoq muddatli barqarorlikka erishish uchun xavfsizlik siyosati iqtisodiy tiklanish, ta'lim, infratuzilma va ijtimoiy institutlarni mustahkamlash bilan uyg'un olib borilishi kerak.

Uchinchidan, Tolibon bilan muloqotda xalqaro hamjamiyat, jumladan Xitoy, xavfsizlik kafolatlarini aniq mezonlar asosida baholashi zarur. Tolibonning Afg'oniston hududidan boshqa davlatlarga qarshi terroristik faoliyat olib borilishiga yo'l qo'ymaslik haqidagi bayonotlari amaliy natijalar bilan tasdiqlanishi kerak. Buning uchun terrorchi guruhlar joylashuvi, ularning moliyaviy manbalari, tashqi aloqalari va harakatlanish yo'nalishlari bo'yicha doimiy monitoring mexanizmini yo'lga qo'yish muhimdir. Xitoyning Tolibon bilan munosabatlari diplomatik pragmatizmga asoslangan bo'lsa-da, bu munosabatlar real xavfsizlik kafolatlari bilan shartlanishi lozim.

To'rtinchidan, Markaziy Osiyo davlatlari Xitoyning Afg'oniston yo'nalishidagi xavfsizlik siyosatini diqqat bilan tahlil qilishi va uni o'z milliy manfaatlarini bilan uyg'unlashtirishga intilishi zarur. Afg'oniston omili O'zbekiston, Tojikiston, Turkmaniston, Qirg'iziston va Qozog'iston xavfsizligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli Markaziy Osiyo davlatlari Afg'oniston bo'yicha tashqi kuchlar tashabbuslariga qaram bo'lib qolmasdan, o'zaro muvofiqlashtirilgan mintaqaviy yondashuvni ishlab chiqishi kerak. Bunda chegara xavfsizligi, savdo yo'laklari, gumanitar yordam, ta'lim loyihalari va iqtisodiy integratsiya masalalari yagona strategik dastur asosida olib borilishi maqsadga muvofiqdir.

Beshinchidan, Xitoyning "Bir makon, bir yo'l" tashabbusi, Xitoy-Pokiston iqtisodiy yo'lagi va Markaziy Osiyo orqali shakllanayotgan transport-kommunikatsiya loyihalarining xavfsizligi Afg'onistondagi barqarorlik bilan bevosita bog'liq. Shu bois Xitoy Afg'onistondagi iqtisodiy loyihalarni resurslar, infratuzilma yoki savdo manfaatlarini doirasida emas, xavfsizlik va mahalliy ijtimoiy barqarorlik omillari bilan uyg'un holda amalga oshirishi zarur. Mahalliy aholi manfaatlarini hisobga olmagan iqtisodiy loyihalar uzoq muddatda ijtimoiy norozilik, radikallashuv va xavfsizlik xatarlarini kuchaytirishi mumkin.

Oltinchidan, Afg'onistondagi transmilliy tahdidlarni kamaytirishda narkotrafikka qarshi kurash alohida strategik yo'nalish sifatida ko'rilishi lozim. Narkotik moddalar savdosi terroristik guruhlarining moliyaviy manbalaridan biri bo'lib, u mintaqaviy jinoyatchilik, korrupsiya, noqonuniy qurol aylanishi va chegaraviy beqarorlik bilan chambarchas bog'liq. Shu sababli Xitoy, Markaziy Osiyo davlatlari va xalqaro tashkilotlar Afg'onistonda muqobil qishloq xo'jaligi dasturlari,

chegaraviy nazorat, moliyaviy kuzatuv va narkotik savdosiga qarshi qo‘shma operativ hamkorlikni kuchaytirishi kerak.

XULOSA

Xitoyning Afg‘onistondagi xavfsizlik manfaatlarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, mazkur yo‘nalish Pekinning kengroq mintaqaviy xavfsizlik strategiyasida alohida o‘rin egallaydi. Afg‘oniston Xitoy uchun geografik jihatdan kichik chegara hududi bilan bog‘langan davlat bo‘lsa-da, uning xavfsizlik ahamiyati Shinjon-Uyg‘ur avtonom rayoni barqarorligi, transmilliy terroristik guruhlar faoliyati, Markaziy Osiyo xavfsizlik muhiti, Xitoy-Pokiston iqtisodiy yo‘lagi hamda “Bir makon, bir yo‘l” tashabbusi bilan chambarchas bog‘liq. Shu sababli Xitoyning Afg‘onistonga nisbatan siyosati xavfsizlik, diplomatiya, iqtisodiy hamkorlik va mintaqaviy barqarorlik omillarining o‘zaro uyg‘unlashuvi asosida shakllanmoqda.

Shinjon omili Xitoyning Afg‘oniston siyosatidagi eng muhim xavfsizlik determinantlaridan biri hisoblanadi. Pekin ETIM/TIP kabi guruhlarining Afg‘oniston hududida joylashuvi, ularning Al-Qoida, ISKP, TTP va boshqa transmilliy ekstremistik tarmoqlar bilan ehtimoliy aloqalarini Xitoyning ichki xavfsizligi va hududiy yaxlitligiga tahdid sifatida baholaydi. Shu nuqtayi nazardan, Afg‘onistondagi siyosiy vaziyat, Tolibonning xavfsizlik majburiyatlari va terrorchi guruhlarini nazorat qilish salohiyati Xitoy uchun bevosita strategik ahamiyat kasb etadi.

Xitoyning Tolibon bilan munosabatlari ehtiyotkor pragmatizmga asoslanishini ko‘rsatadi. Pekin Tolibon bilan muloqotni Afg‘onistondagi xavfsizlik xavflarini boshqarish, ETIM/TIP faoliyatining oldini olish, Xitoy fuqarolari va loyihalarini himoya qilish hamda mintaqaviy barqarorlikni saqlash vositasi sifatida ko‘radi. Shu bilan birga, Tolibonning terroristik guruhlar ustidan real nazorat o‘rnatish imkoniyati bo‘yicha noaniqliklar Xitoy siyosatini ehtiyotkor, bosqichma-bosqich va shartli hamkorlikka asoslangan shaklda olib borishga undaydi.

Afg‘onistondan kelib chiqadigan tahdidlar ko‘p qatlamli xususiyatga ega. Terrorizm, diniy ekstremizm, xorijiy jangarilar harakati, narkotrafik, noqonuniy qurol aylanishi, transchegaraviy jinoyatchilik va moliyaviy noqonuniy oqimlar Xitoyning Afg‘oniston bo‘yicha xavfsizlik tashvishlarini yanada kuchaytiradi. Ushbu tahdidlarning transmilliy tabiati ularni bir davlat doirasida hal qilish imkoniyatini cheklaydi. Shu sababli Xitoy, Markaziy Osiyo davlatlari, Pokiston, Eron, Rossiya va xalqaro tashkilotlar ishtirokidagi ko‘p tomonlama xavfsizlik mexanizmlari muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Jiayi Zhou, Fei Su and Jingdong Yuan. Treading Lightly: China’s Footprint in a Taliban-led Afghanistan. // Insights on Peace and Security. 2022. –P.4. Electron resource:
https://www.sipri.org/sites/default/files/202211/sipriinsights_2208_china_and_afghanistan_2.pdf
2. Zhao Huasheng. China and Afganistan. China’sinterests, stances and perpertives. 2022.–P.89. Electron resource:
https://www.sipri.org/sites/default/files/2022-11/sipriinsights_2208_china_and_afghanistan_2.pdf
3. Michael E. Clarke. Xinjiang and China's Rise in Central Asia - A History. <https://www.routledge.com/Xinjiang-and-Chinas-Rise-in-Central-Asia---A-History/Clarke/p/book/9780415728386>
4. Eastern Turkistan Islamic Movement – Sharqiy Turkiston Islomiy Harakati
5. China’s Position on the Afghan Issue. // Ministry of Foreign Affairs People’s Republic of China.// Electron resource:
https://www.fmprc.gov.cn/eng/gjhdq_665435/2675_665437/2676_663356/2677_663358/202304/t20230412_11057785.html
6. Eastern Turkistan islamic movement. // Electron resource:
https://main.un.org/securitycouncil/en/sanctions/1267/aq_sanctions_list/summaries/entity/eastern-turkistan-islamic-movement
7. United Nations Interregional Crime and Justice Research Institute. Afghanistan’s Security Landscape under the Taliban and its Effects on Regional and International Stability. 2023. –P.59. // Electron resource:
<https://unicri.org/sites/default/files/2025-04/Afghanistan-Security-Landscape.pdf>
8. Future of Sino-Afghan relations. Impacts on EU interests and strategic autonomy.// Electron resource:
https://www.europarl.europa.eu/RegData/etudes/BRIE/2023/747434/EPRS_BRI%282023%29747434_EN.pdf
9. Shivam Shekhawat. Understanding China’s Engagement with Afghanistan Under Taliban 2.0. // Electron resource:
<https://www.orfonline.org/research/understanding-china-s-engagement-with-afghanistan-under-taliban-2-0>
10. L. Andersen, Y. Jiang. China’s engagement in Pakistan, Afghanistan and Xinjiang: Will China’s root cause model provide regional stability and security? Danish Institute for International Studies. 2018. –P.45.

11. M. E Clarke. *Xinjiang and China's rise in Central Asia: A history*. Routledge. 2011. –P.83.
12. European Parliamentary Research Service. *Future of Sino-Afghan relations: Impacts on EU interests and strategic autonomy*. European Parliament. 2023. –P.12.
13. Barnett R. Rubin. *Chinese Peacemaking Efforts in Afghanistan*. 2024. // Electron resource: <https://www.stimson.org/2024/chinese-peacemaking-efforts-in-afghanistan>
14. Ministry of Foreign Affairs of the People's Republic of China. *China's position on the Afghan issue*. 2023. // Electron resource: https://www.fmprc.gov.cn/eng/gjhdq_665435/2675_665437/2676_663356/2677_663358/202304/t20230412_11057785.html
15. S. Kam. *China and the evolving militant threat in post-war Afghanistan*. *Counter Terrorist Trends and Analyses*, 14(2), 2023. –P. 16–23.
16. R. Pantucci, E. Schwarck, *Transition in Afghanistan: Filling the security vacuum – The expansion of Uighur extremism?* CIDOB. <https://www.files.ethz.ch/isn/181512/Uighurs%20paper%20May%202014.pdf>
17. International Crisis Group. *The Taliban's neighbourhood: Regional diplomacy with Afghanistan*. Asia Report No. 337.2024. // Electron resource: <https://www.crisisgroup.org/rpt/asia/south-asia/afghanistan/337-talibans-neighbourhood-regional-diplomacy-afghanistan>
18. Jiayi Zhou, Fei Su And Jingdong Yuan. *Treading Lightly: China's Footprint In A Talibanled Afghanistan*. // Electron resource: https://www.sipri.org/sites/default/files/2022-11/sipriinsights_2208_china_and_afghanistan_2.pdf
19. Observer Research Foundation. *Understanding China's engagement with Afghanistan under Taliban 2.0*. // Electron resource : <https://www.orfonline.org/research/understanding-china-s-engagement-with-afghanistan-under-taliban-2-0>
20. Stephen Westcott. *The Pragmatic Neighbour China's Afghanistan Policy 2001-2021*. *Journal of Asian Security and International Affairs Online*. First 2022 SAGE Publications.